

BOLALARDA DUDUQLANISHNING KELIB CHIQUISH SABABLARI

Rimbayeva Ozoda Bazarbayevna

NukusDPI 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda duduqlanish nutq nuqsonining kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish chora-tadbirlari hamda davolash ishlari haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: duduqlanish, logoped, psixolog, nerv sistemasi, massaj.

Abstract: This article provides information on the causes of stuttering in preschool children, prevention measures, and treatment.

Key words: stuttering, speech therapist, psychologist, nervous system, massage.

Аннотация: В данной статье представлена информация о причинах, мерах профилактики и лечения заикания у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: заикание, логопед, психолог, нервная система, массаж.

Duduqlanish- til, jag' va yuz muskullaridagi tortishishlar natijasida ya'ni ularning erkin harakat qila olmasligi oqibatida paydo bo'luvchi nutq nuqsoni. Duduqlanishda nutq sur'at-ohangining buzilishi kuzatiladi. Bu kasallik tug'ma bo'lmasdan, balki duduqlanishga moyilligi bo'lgan bolalarda hayoti davomida paydo bo'lishi yoki bolaga kuchli psixologik ta'sir, markaziy nutq sistemasining jarohatlanishi hamda artikulyatsion apparatning shikastlanishi oqibatida kelib chiqadi.

Duduqlanishni uzoq yillar tadqiq etgan olimlar hamda mutaxassizlar, uning nerv sistemasi bilan tig'iz aloqadorligini isbotlashgan. Bu nutq nuqsoning o'rganilish tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, duduqlanishni o'rganish ishlari miloddan avvalgi

asrlardayoq boshlangan. Qadimgi yunon faylasufi Gippokrat duduqlanish bosh miyada namlikning yetishmovchiligi oqibatida kelib chiqadi deb hisoblagan bo'lsa, Aristotel esa artikulyatsion apparat qismlarining o'zaro noto'g'ri munosabati natijasida kelib chiqadi degan fikrlarni aytib o'tgan.

XX asr tadqiqotlariga keladigan bo'lsak duduqlanish nutq sohasidagi funksional buzilish natijasi, nutq nevrozi deb fikr bildirilgan. Yana boshqa olimlarga diqqat qaratsak ular duduqlanishga nisbatan nutq apparatidagi g'ayriixtiyoriy harakatda ifodalanadigan sof ruhiy kasallik deya o'z munosabatlarini bildirishgan. Ushbu nutq nuqsonini o'rganish jarayonida turli olimlar o'zlarining turlicha fikrlarini bayon etgan. Duduqlanish bugungi kunda ham o'rganilayotgan nuqt nuqsoni bo'lib bu borada ko'plab mutaxassislar o'z ilmiy ishlarini olib bormoqdalar.

Duduqlanishning ikki xil sababi bo'lib ular: turtki bo'luvchi va provokatsiyalovchi. Duduqlanishning kelib chiqishiga turtki bo'luvchi sabablardan quyidagilarni ajratib o'tish lozim:

- Irsiy moyillik;
- Ensefolopatik oqibatlarga olib keladigan kasalliklar;
- Bachadon ichida, tug'ilish davomidagi jarohatlar;
- Asab tizimining ortiqcha ishlashi va charchashi;

Duduqlanish paydo bo'lishiga yordam beradigan shart-sharoitlar:

- Motorika rivojlanishi va ritm hissining buzilishi;
- Emotsional rivojlanishning yetishmasligi;
- Atrofdagilar bilan munosabatlarning anormalligi sababli reaktivlikning oshishi;
- Yashirin ruhiy kasalliklar;

Yuqorida keltirilgan shartlarning aalli bittasi mavjudligi asab buzilishi uchun yetarli bo'ladi va natijada duduqlanish kelib chiqadi.

Duduqlanish rivojlanishining provokatsiyalovchi sabablari: juchli ruhiy travma (qo'rquv); oilada ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashish; taxilaliya (tez gapirish).

Endi yuqorida keltirilgan sabbalardan bir nechtasining izohiga to'xtalib o'taylik:

Duduqlanishga irsiy moyilligi bo'lgan bolalar. Ota-onaning nevropatik kasallanishi (markaziy nerv sistemasining faoliyatini bo'shashtiruvchi yoki izdan chiqaruvchi nerv kasalliklari, yuqumli va jismoniy kasalliklar).

Konstitutsional moyillik- vegetative nerv sistemasining kasallanishi va oliy nerv faoliyatining juda ham nozikligi, uning ruhiy shikastlanishga alohida duchor bo'lishi;

Nasliy buzilish-duduqlanish nutq apparatining tug'ma zaifligi asosida rivjlanadi, u avloddan-avlodga retsessiv alomat tarzida o'tib borishi mumkin. Agar tashqi muhit duduqlanishga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ekzogen omillarning ta'sirini e'tiborga olish lozim.

Bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida, ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikastlanishi: ona qornidagi va tug'ma jarohatlanish, asfiksiya: postnatal-yuqumli kasalliklar, turli xil bolalar kasalliklaridagi jarohatli va trofik-almashinuv buzilishlar.

Sanab o'tilgan jismoniy hamda ruhiy sohalarda turli xil patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va natijada duduqlanishning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bugungi kunga kelib jamiyatimizda duduqlanuvchi bolalar sonini kamaytirish uchun biz uni keltirib chiqaruvchi sabablar oldini olishimiz lozim. Biz bolalarning nutq funksional sistemasining samarali rivojlanish davri hamda shaxsining shakllanish davri bo'lgan 2-4 yosh oralig'ida bola nutqiga, uning ruhiyatiga e'tiborli bo'lishimiz, unga kuchli psixik ta'sir qiluvchi narsalardan (qo'rqinchli film, jangari o'yinlar) uzoq tutishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaga baqirish, uni qo'rqitish, uni jazolash bola nerv tizimida kuchli qo'zg'alish yoki tormozlanishga olib keladi, natijada bola nutq organlari muskullarida tortishuvlar kuzatilib bola duduqlanadigan bo'lib oladi. Mana shunday vaziyatlar oldini oladigan bo'lsak, bola hayotining keying o'n yilligida (4 yoshdan 14 yoshgacha) duduqlanishga moyillik birmuncha pasayib birinchi uch yildagicha bo'ladi.

Duduqlanuvchi bolalarni davolash ishlari eng avvalo ularning kun tartibini tuzishdan boshlanadi. Ya'ni bunda bolaning ovqatlanish ratsioni, uxlash, dam olish, o'yin, o'qish vaqtlari aniq tartibda belgilab olinadi. Albatta bular orasida mashg'ulotlar uchun ham kerakli vaqt ajratiladi. Duduqlanuvchi bola tinch shu bilan

birgalikda jo‘shqin muhitda bo‘lishi zarur. Uning diqqat-e’tibori o‘z nuqsoniga emas balki turli o‘yinlarga, mashg‘ulotlarga, jismoniy mashq hamda didktik o‘yinlarga qaratilishi muhim.

Duduqlanuvchi bola kun tartibiga chiniqtiruvchi tadbirlar ham kiritiladi. Kundalik sayrlar, ochiq havodagi o‘yinlar, sport mashg‘ulotlari asab sistemasini mustahkamlaydi, ko‘tarinki ruhni yaratadi, havo vannalari yurak-qon tomir sistemalariga ham faol ta’sir ko‘rsatadi, uning ishlashini mo‘tadillashtiradi. Duduqlanuvchi bolalarni korreksiyalashda nafas olish tizimini to‘g‘irlash ishning asosi hisoblanadi.

Nafas mashqlari bilan birgalikda bolaning bosh, yuz, qo‘l, ko‘krak hamda umurtqa pog‘onasi bo‘ylab joylashgan faol biologik nuqtalarni hamda nutq hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi har bir a’zoni massaj qilish ham samarali natija beradi.

Har qanday holatda ham mutaxassis bilan birgalikda, doimiy reja asosida olib borilgan ishlar bola nuqsonini korreksiyalashda yutuqqa erishishning asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- ❖ M.Ayupova “Logopediya” Toshkent-2019
- ❖ P.Po‘latova “Maxsus pedagogika” Toshkent-2014
- ❖ M.R.Po‘latxo‘jayeva “Defektologiyaning klinik asoslari” Toshkent-2013
- ❖ @mymedic.uz internet sayti
- ❖ @Avitsenna.uz internet sayti